

PATRIK MADIONO ASARLARIDA OTA OBRAZI

Erkinova Saodat

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli fransuz yozuvchisi Patrik Modiano asarlarida ota obrazining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda ota obrazi an'anaviy himoya va tayanch timsolidan farqli ravishda yo'qolgan, sirli, ba'zan esa axloqiy jihatdan murakkab shaxs sifatida yoritilishi asoslanadi. Modiano romanlarida ota obrazi muallifning parchalanib ketgan bolaligi, urush yillari xotiralari va o'zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Maqolada adibning biografik tajribasi, xotira va tarix munosabati, shaxsiyat va ildizlarni izlash motivlari ota obrazi orqali qanday badiiy ifoda topgani ochib beriladi. Natijada ota obrazi Modiano poetikasida markaziy falsafiy konsepsiya darajasiga ko'tarilgani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Obraz, ota, parchalangan bolalik, o'tmish, ramz, o'zlik

Har bir badiiy adabiyot na'munasida voqealarni bir-biriga bog'lovchi, yozuvchi istak va niyatlarini amalga oshiruvchi ishtirokchilar mavjud bo'ladi. Bu ishtirokchilar badiiy obraz bo'lib, asar sujetini xarakatlantiruvchi asosiy poetik vositadir.

«Obraz» (yunoncha eydos – ko'rinish, manzara) bu tashqi ko'rinish, predmet va narsaning qiyofasi ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga, predmet va narsaning mohiyati, g'oyasi, ichki mazmuni tushunchalarini ham o'zida tashiydi. Yunon olimi Aflotun uchun obraz real dunyoning badiiy aksi bo'lsa, Aristotel uni «mimesis» nazariyasi, ya'ni taqlid orqali tushuntirgan. “Литературный энциклопедический словарь” da obraz mohiyatiga tarixiy nuqtaiy nazardan yondashilib, u haqidagi qator qarashlar keltirilgan: I. Kant obrazni muvofiqlik va mos kelish, fikr va tuyg'uning uyg'unligi («сочетание и согласие», «чувственность и рассудок») sifatida e'tirof etgan. Shelling talqinida esa, obraz real va ideal, borliq va g'oya, tugallanganlik va hududsizlik tushunchalarini o'zida birlashtirgan.

“Adabiyot hayotni badiiy obrazlar va vositalar yordamida tasvirlash vositasidir. San'atning hech bir turi inson ruhiyati, tuyg'ular va ichki kechinmalari haqida adabiyotchilik aniq tasvir va real xulosalarni bera olmaydi. Adabiy asar voqealarini tasvirlashda yozuvchilar real hayotdagi obrazlardan foydalanadilar. Badiiy adabiyot syujetida ana shunday muhim rol o'ynaydigan an'anaviy obrazlardan biri – “ota” obrazidir”. [G'offurova, 2024:1]

Deyarli barcha yozuvchilarning badiiy asarlarida ona obraziga ko'proq urg'u beriladi, biroq ota obrazi ham inson hayotidagi ma'suliyat, kuch va tayanch timsoli sifatida alohida o'rin egallaydi. O'zbek adabiyotida ota obraziga urg'u berilgan asarlar kam uchraydi.

Masalan, Ulug'bek Hamdamning "Ota" romaniga quyidagicha ta'rif ham bejizga keltirilmaganligini ko'rishimiz mumkin: "Adabiyotimiz, jumladan, romanchiligimiz falaj holatiga tushib qolgan hozirgi sharoitda bu asar roman janriga qayta jon ato etdi". [Хамдамов, 2024:3] "Ota" - bu so'zni eshitganda har bir insonning ko'z o'ngida, shaxsan mening ko'z ongimda ham farzandlari uchun, ularni kelajagi uchun jonini ayamaydigan va oilasi uchun ham tinimsiz, beminnat mehnat qiladigan inson timsoli gavdalanadi. Ota obrazi antik davrlardan to hozirgi kungacha muhim o'rin tutgan shu bilan bir qatorda jahon adabiyotida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, Turgenevning "Otalar va bolalar", Balzakning "Gorio ota", Fridrix Shillerning "Qaroqchilar" kabi qator asarlarni keltirishimiz mumkin. Bu asarlarda ota obrazi fidoyi, tayanch, oilasi va farzandlari uchun qayg'uradigan inson obrazi sifatida gavlantirilgan. Frans Kafka shu bilan bir qatorda Patrik Modiano asarlarida buning aksini ko'rish mumkin.

Taniqli fransuz yozuvchisi Patrik Madiono adabiyot sohasida 2014-yilda Nobel mukofatiga sazavor bo'ldi, bunda uning yaqin o'tmishi haqida so'zlaydigan asarlarining o'rni katta.

40 dan ortiq roman muallifi bo'lgan Patrik Modiononing barcha asarlarida bolalikda boshidan kechirgan tark etilish, yolg'izlanish jarohatlarini qayta-qayta tilga oladi, bu jarohatlar uni odamlar orasida beqaror va tortinchoq qilib qo'ygani o'z intervuylarida ta'kidlanadi.

Modianoning romanlarida eski ishchi tumanlarning g'amgin, xotirjam muhitlari, ularning kafelari, avtoustaxonalari, xarob mehmonxonalari, iflos tungi klublari, bulvarlar, maydonlar, metro bekatlaridan iborat xayoliy labirint, yozuvchining parchalanib ketgan va baxtsiz bolaligidan guvohlik beradi. Patrik Modiano asarlarida ota obrazi ko'pincha sirli va topib bo'lmaz shaxs sifatida tasvirlanadi. U o'tmish bilan bog'liq, ko'pincha urush davridagi bosqin va shubhali ishlar bilan aloqador bo'lib, yo'qolish, shaxsiyat va ildizlarni izlash mavzularini mujassam etadi. Yozuvchining otasi haqidagi hayotiy voqealar yahudiy sifatida hibsga olingani va hamkorlikda ayblangani asarlardagi ota obrazining badiiy shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgani bilinib turadi. Bu obraz odatda xotira va parchalari xiralashgan suratlar asosida yaratilgan xayoliy insonlar timsoli sifatida gavdalanadi.

"Xo'sh, Modiano nima uchun bosqin davriga qiziqadi? 1945- yili tug'ilgan va urush dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rmagan bu adib asarlarida nega urush davridan uzilolmaydi? Bu savolga Modianoning o'zi quyidagicha javob beradi: "Meni o'zimning dunyoga kelishim qattiq qiziqtiradi. Mening dunyoga kelishim bosqinchilikning tahlikali va orsiz davridir... men har doim o'zimni shu dahshatdan yaralganman deb his qilaman... men o'sha yoqdan kelgan- man, bu yerdagilar esa mening ildizlarim haqida noto'g'ri tasavvurga ega". "[Асадов, 2016:67]

Modiano asarlarida bu o‘tmish hozirgi hayotni shakllantiruvchi kuch sifatida doimo qayta yoritiladi. ““Xiyobonlar halqasi”da voqealar o‘g‘rilik va ig‘volarga to‘la notinch bir paytda, go‘yoki 1940–1944 yillarda Fransiya boshidan kechirgan bosqinchilikka o‘xshash bir davrda bo‘lib o‘tadi. Bu romanda ham xuddi “Tungi darbon” kabi asarni tarixiy romanga yaqinlashtiradigan na aniq sanalar va na tanish nomlar bor. Hikoyachi ko‘p aziyat chekkan izziz otasini axtaradi, shu yo‘sinda u bir qator shubhali kimsalar bilan uchrashadi, ular bilan do‘stlashadi ham, biroq otasi (asarda ikkinchi shaxs ko‘plikda ifodalangan) uni tan olmaydi. Aynan shu qo‘rqoq va muttaham ota o‘g‘li bakalavriaturani tugatganidan ko‘p o‘tmayoq (asarda bayon etilgan asosiy voqealardan o‘n yil oldin) uni o‘z iflos ishlariga jalb qilgan”,

[Асадов, 2016:68] keyin esa undan qutulish uchun metro poyezdi tagiga itarib yuborishga uringan sahnadan so‘ng, hikoyachi shunday mulohaza yuritadi:

“Otaning o‘z o‘g‘lini o‘ldirmoqchi bo‘lishi yoki undan qutulmoq istagi, bugungi kunda axloqiy qadriyatlarimizda yuz bergan ulkan o‘zgarishlarning belgisi, deb o‘ylayman. Yaqingacha buning aksi kuzatilgan edi: o‘g‘illar kuchini isbotlash maqsadida otalarini o‘ldirishardi. Ammo endi biz kimga qarshi g‘azabimizni yo‘naltiramiz? Biz, otasizlar, otalikni izlab so‘nmas ruhlarni quvishga mahkummiz. Biz uni hech qachon topolmaymiz — u doimo qo‘ldan chiqib ketadi.”

“Asarning atigi bir necha sahifadan iborat birinchi va so‘nggi sahnalaridan ayon bo‘lib, romanning qolgan qismida vaqti-vaqti bilan ishora qilinganidek, bularning bari uzundan-uzoq sirli xotiradan boshqa narsa emasdi: qahramon o‘z zamonidan chetlashib, nemislar bosqini davriga tushib qolgan, otasining atrofi- dagi shubhali kimsalar bilan do‘stlashgan va uning qalbiga (foydasiz) yo‘l topgan edi. “Yulduz maydoni”da bir necha sahifanigina egallagan ota mavzusi “Xiyobonlar halqasi”da birinchi o‘ringa chiqadi va bu mavzu endi Modiano asarlaridan tushmaydi (“Tungi darbon”da ona mavzusiga ko‘proq o‘rin ajratilgan). Modiano agar inson o‘z o‘tmishini tushunib yetsa, hozirda o‘zi kim ekanligini anglashi oson bo‘ladi, deb hisoblaydi. U o‘zini dahshatli urush yillaridagi turli holatlarda sinab ko‘rib, o‘sha paytlarda qanday yo‘l tutishini, nimalarga qodirligini bilmoqchidek bo‘ladi go‘yo. Tarixdagi o‘z o‘rnini anglab yetishga bo‘lgan urinish Modiano romanlarida yanada kengroq metafizik muammoga: inson va zamon muammosiga bog‘lanib ketadi. Inson bilan zamonning hamma narsani xarobaga aylantiruvchi kuchi o‘rtasida qanday aloqa bor? O‘z yo‘lida hamma narsani yuvib ketuvchi, odamlarni, ularning bo‘lib o‘tgan voqealar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirib yuboruvchi hayot oqimlariga qarshi turish uchun nima qilish kerak? Adibning fikricha, bu savollarning javobi ma‘lum: zamon oqimida o‘z o‘rningni, ilgari kim edingu endi kim bo‘lganini aniq bilishing lozim. Mana shu, zamon “ildiz”iga yetish va uni o‘rganish niyati Modianoning barcha asarlari qahramonlarining eng asosiy muddaosiga aylanadi, yozuvchining deyarli barcha asarlari aynan shu haqidadir.

Modianoning boshqa romanlariga kirish deb hisoblash mumkin bo‘lgan “To‘y sayohati” asarini o‘qiganda birinchi shaxs tilidan hikoya qiluvchi personajning prototipi aynan muallifning o‘zidir, degan to‘xtamga kelamiz. “To‘y sayohati”dagi quyidagi parchani fikrimizga isbot tariqasida keltirish mumkin:

“Shart-sharoit va muhitdan qat’i nazar, kunlarning birida yolg‘izlik va nadomatlar to‘lqini ustimizga yopiriladi. Keyin u chekinadi va g‘oyib bo‘ladi. Lekin kuch to‘plab, yana qaytadi va Ingrid endi undan xalos bo‘lishning uddasidan chiqa olmagandi. Men ham bunga ojizman”.

Asar mana shu jumalalar bilan yakuniga yetadi. Bu jumalarni adibning barcha asarlariga umumiy xulosa deyish ham mumkin. O‘zligini qidirish, anglash yo‘lida Madiano o‘tmishga qayta-qayta murojaat etishdan charchamaydi. Butun dunyoda urush hukm surib, xunrezliklar kishi sillasini quritayotgan, ertangi kun haqida fikrlash mushkul bo‘lib qolgan davrda personajlari bilan darbadar tentirab, “yolg‘izlik va nadomatlar to‘lqini”dan najot izlaydi. Najot borligiga ishonch allaqachon so‘nganiga qaramay, izlayveradi. Negaki inson hayot ekan, haqiqat va saodat yo‘lida intilishga mahkum”. [Асадов, 2016:70]

Xulosa qilib aytganda, Patrik Modiano asarlarida ota obrazi an’anaviy adabiy talqindan tubdan farq qiladi. U mehr va tayanch timsoli emas, balki yo‘qolgan xotira, uzilgan ildiz va shaxsiy hamda tarixiy bo‘shliq ramzidir. Yozuvchi ota obrazini insonning o‘zligini anglash yo‘lidagi eng murakkab to‘siqlardan biri sifatida tasvirlaydi. Modiano qahramonlari otani izlar ekan, aslida o‘z o‘tmishi, kelib chiqishi va kimligi haqidagi savollarga javob topishga urinadilar, biroq bu izlanishlar ko‘pincha noaniqlik va iztirob bilan yakunlanadi. Shunday qilib, ota obrazi yozuvchi uchun xotira va tarix o‘rtasidagi uzilgan ko‘prik bo‘lib, XX asr fojialari fonida inson ruhiyatining parchalangan holatini ifodalaydi. Bu jihat Modiano ijodiga chuqur falsafiy mazmun, sirli ohang va uzluksiz izlanish ruhini bag‘ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хамдамов У. (2024). Ота. -Т.
2. Uralova Dilnoza. Ota obrazining yangicha talqini // Central asian journal of academic research. -2025. -Т. -В 74-76.
3. Асадов М. Патрик Маданонинг утмишига саёхати // Жахон адабиёти. -2016. Тошкент. - С 68.
4. Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987.- С. 255.
5. МАММАДИЙОР, А. (2020). THE PROBLEM OF AN ABSURD HERO IN THE PROSE OF ALBERT CAMUS AND KHURSHID DUSTMUHAMMAD. INTERNATIONAL JOURNAL, 2(3), 117-126.

6. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1).
7. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119–123.
8. Bekmuradova, Z. (2025, May). The O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA XIAZM HODISASINING O ‘RGANILISHI. In Conferences (Vol. 1, No. 01).